O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Menejment fakulteti dekani
D.ISMAILOV
2026-yil “30” iyun

GLABAL BIZNES MUHIT

FANINING ISHCHI O‘QUV DASTURI

Bakalavr (sirtqi ta’lim shakli)

Bilim sohasi:	400 000	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410 000	Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60411200	Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

Dekan
(Tasdiqlangan)
D.ISMAILOV

Toshkent – 2026

Mazkur ishchi o‘quv dasturi Menejment fakulteti Kengashining 2026-yil “30” iyun dagi T-10-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.

Mazkur ishchi o‘quv dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “Innovatsion menejment” kafedrasi tomonidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil “26” iyun dagi 44-sonli yig‘ilish bayoni).

Tuzuvchilar:

YEGAMBERDIYEV S.S. — TDIU “Innovatsion menejment” kafedrasi dotsenti, PhD

TURSUNOVA Z.R. — TDIU “Innovatsion menejment” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

Taqrizchilar:

A.M.Qodirov – TDIU qoshidagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy markazi sektor rahbari, i.f.d.,prof.

M.S.Saidov – ISFT xalqaro universiteti professori, i.f.d

Kafedra mudiri
(Tasdiqlangan)
B.URINOV

1. Fan ma'lumotlari

Fan/modul kodi GOLBENV5	**O‘quv yili** 2026-2027	**Semestr** 7	**ECTS – Kreditlar** 5.00
Fan/modul turi Tanlov	**Ta’lim tili** O‘zbek	**O‘quv rejadagi tartib raqami**	**Haftadagi dars soatlari** 8

Fanning nomi	Jami yuklama (soat)	Auditoriya mashg‘ulotlari jami – 20 soat, shundan:			Mustaqil ta’lim (soat)	Kurs ishi
		Ma’ruza	Amaliy	Lab-ya		
Glabal biznes muhit	**150**	10	10	0	**130**	-

2. Fanning mazmuni

Fanning maqsadi – Fanning maqsadi – Fanning maqsadi – - global biznes muhitining mohiyatini tushuntirish; - biznes tashkil etish yo‘llari, firmalar biznes muhiti, iste'miolchilar ehtiyojlarini aniqlash; - biznesni globallashuvi va baynaminallashuvi, global moliya bozorlari tushunchasi, jahon kapital bozorini tavsiflash; - biznesda siyosiy muhitni tashkil etuvchi omillar, innovasion iqtisodiyotning xususiyatlari va global taraqqiyotning asosiy jihatlarini tahlil qilish; - transmilliy korporatsiyalarni global biznesda tutgan o‘rni rivojlanishi va faoliyatini muhokama qilish; - global biznesning me'yoriy-xuquqiy jihatlarini va biznesda muzokoralar olib borish masalalarini o‘rganish; - global biznesda eksport salohiyatini baholash bo‘yicha fikrlar yuritish.

Fanning vazifalari – Fanning vazifalari – Fanning vazifalari – Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi: 1. Global biznes muhitining madaniy, huquqiy, siyosiy va iqtisodiy kuchlarini tahlil qilish. 2. Xalqaro savdo va investitsiyalar nazariyalarini tushunish. 3. Hukumat aralashuvi va savdo kelishuvlarining global biznes qarorlariga ta’sirini aniqlash. 4. Global biznesga kirish sabablari va usullarini tushuntirish. 5. Global biznesning strategik maqsadlarini (masalan, iqtisodiy o‘sish, ishlab chiqarish, moliya, marketing, xavf boshqaruvi va boshqalar) qo‘llab-quvvatlash uchun chet el bozorlariga kirishning to‘g‘ri usullarini va biznes tashkiloti modellarini tanlash. 6. Turli mamlakatlarda biznesni yuritishda asosiy marketing, boshqaruv va inson

resurslari tamoyillarini qo‘llash bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lish. 7. Xalqaro savdoda UNIDRUA tamoyillari bilan tanishib chiqish. 8. Korxonada samarali boshqaruv faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

3. Fanni o‘zlashtirish uchun zarur boshlang‘ich bilimlar	
1.	“Global biznes muhiti” fanini o‘zlashtirish uchun talaba iqtisodiyot nazariyasi, menejment, marketing, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va tadbirkorlik faoliyatiga oid boshlang‘ich bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Shuningdek, jahon iqtisodiyoti, xalqaro savdo, global bozorlar va turli mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari to‘g‘risida umumiy tushunchalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

4. Ta’lim natijalari (TN)	
Kasbiy kompetensiyalar:	
TN1	Fanni o‘zlashtirish natijasida bakalavr: global biznes muhitining mazmuni, tarkibi va asosiy xususiyatlarini tushunadi. Shuningdek, global iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va madaniy omillarning biznes faoliyatiga ta’sirini tahlil qila oladi. Xalqaro bozorlar va global biznes imkoniyatlarini baholay oladi.
TN2	Turli mamlakatlar biznes muhitidagi o‘ziga xos xususiyatlarni taqqoslay oladi va xalqaro biznes faoliyatida yuzaga keladigan imkoniyat va xavflarni aniqlay oladi. Xususan global raqobat sharoitida korxonaning faoliyat strategiyasini baholay oladi
TN3	Transmilliy kompaniyalar va xalqaro biznes subyektlari faoliyatini tahlil qila oladi. Global biznes muhitidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy risklarni baholay oladi. Xalqaro biznesda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur ma’lumotlarni tahlil qila oladi.
Ko‘nikmalar:	
TN4	Global biznes muhiti omillarini aniqlash va tasniflash, xalqaro va global bozorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, mamlakatlarning biznes muhitini o‘zaro taqqoslay oladi.
TN5	Iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy omillarni baholash, PESTEL tahlilidan foydalanish, SWOT tahlili asosida xalqaro biznes imkoniyatlarini aniqlash, global bozorlarning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, xalqaro biznes risklarini aniqlash va baholash ko‘nikmasi shakllanadi.
TN6	Mamlakat va bozor tanlash bo‘yicha qarorlarni asoslash, xalqaro raqobat muhitini tahlil qilish, transmilliy kompaniyalar faoliyatini o‘rganish va tahlil qilish, xalqaro savdo va investitsiya jarayonlari bo‘yicha ma’lumotlar bilan ishlash, statistik ma’lumotlar, jadval va grafiklarni tahlil qilish, xalqaro biznes bo‘yicha amaliy vaziyatlarni (keyslarni) tahlil

	qilish, global biznes muhitidagi o‘zgarishlar asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish ko‘nikmasi shakllanadi.

5. Fan mazmuni va mashg‘ulotlar shakli:		**Soat**
Ma’ruza (M)		**10**
M1	“Global biznes muhiti” faniga kirish, Global biznesning ichki muhiti va tashqi muhiti, Biznesning globallashuvi va baynaminallashuvi, transmilliylashuv va globallashuv jarayonlari	2
M2	Global moliya va valyuta tizimining shakllanishi, Global biznesning siyosiy muhiti, Global biznesning makroiqtisodiy muhiti	2
M3	Jahon iqtisodiyoti globallashuvi rivojlanishining ekologik va innovatsion omillari, Global biznesda “TMK”larning tutgan o‘rni, Global biznesda xalqaro shartnomalarni tartibga solish	2
M4	Global biznesda demografik o‘zgarishlar, Global biznesning me’yoriy-huquqiy muhiti	2
M5	Global biznesda etika va yashil biznes drayverlari, Global biznesda eksport salohiyatini baholash, Biznesda fikirlash dizayni	2
Amaliy mashg‘ulot (A)		**10**
A1	“Global biznes muhiti” faniga kirish, Global biznesning ichki muhiti va tashqi muhiti, Biznesning globallashuvi va baynaminallashuvi, transmilliylashuv va globallashuv jarayonlari	2
A2	Global moliya va valyuta tizimining shakllanishi, Global biznesning siyosiy muhiti, Global biznesning makroiqtisodiy muhiti	2
A3	Jahon iqtisodiyoti globallashuvi rivojlanishining ekologik va innovatsion omillari, Global biznesda “TMK”larning tutgan o‘rni, Global biznesda xalqaro shartnomalarni tartibga solish	2
A4	Global biznesda demografik o‘zgarishlar, Global biznesning me’yoriy-huquqiy muhiti	2
A5	Global biznesda etika va yashil biznes drayverlari, Global biznesda eksport salohiyatini baholash, Biznesda fikirlash dizayni	2

6. Mustaqil ta’lim topshiriqlari

№	**Mavzu / Topshiriq nomi**	**Soat**
1	Xalqaro biznesning mohiyati va asosiy turlarini o‘rganish hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.	10

№	Mavzu / Topshiriq nomi	Soat
2	Biznes faoliyati modellarini o‘rganish va davlatning umumiqtisodiy siyosatining biznes faoliyatiga ta’sirini tahlil qilish.	10
3	Biznes simulyatsiyasi va interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish hamda ularning samaradorligini baholash.	10
4	Ochiq bozor iqtisodiyotining mohiyati va ahamiyatini o‘rganish hamda uning biznes rivojiga ta’sirini tahlil qilish.	10
5	Rivojlanayotgan bozorlarning xususiyatlarini o‘rganish va ularda biznes yuritish imkoniyatlarini tahlil qilish.	10
6	Protektsionizm va savdo erkinligi siyosatining xalqaro biznes rivojiga ta’sirini qiyosiy tahlil qilish.	10
7	Global biznesda transmilliy kompaniyalarning o‘rnini o‘rganish va ularning jahon iqtisodiyotiga ta’sirini tahlil qilish.	10
8	Globallashuv sharoitida kichik biznesning o‘rnini o‘rganish va uning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini tahlil qilish.	10
9	Global biznesda siyosiy muhitning rolini o‘rganish va unga ta’sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qilish.	10
10	Davlat boshqaruvining global biznes muhitiga ta’sirini o‘rganish va baholash.	10
11	Iqtisodiy daromadlarning taqsimlanishini o‘rganish va iqtisodiy faoliyatdagi o‘zgarishlarning biznes muhitiga ta’sirini tahlil qilish.	10
12	Global biznesda moliyaviy institutlarning o‘rnini o‘rganish va ularning xalqaro biznes faoliyatini moliyalashtirishdagi ahamiyatini tahlil qilish.	10
13	Global biznesning demografik muhitini o‘rganish va demografik omillarning xalqaro bozorlar rivojiga ta’sirini tahlil qilish.	10
	Jami:	**130**

Izoh: *Fan (modul) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo‘lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining 1/3 qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash (kooperativlik)ga mo‘ljallangan.*

7. Ta’lim texnologiyalari va metodlari

ma’ruzalar; real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; vaziyatli topshiriqlar (keys-stadi)ni yechish; esse, tezis va maqolalar yozish; blits-so‘rov; kichik guruhlarda ishlash; taqdimotlar qilish; loyiha ishlarini bajarish va himoya qilish; simulyatsion va interaktiv metodlar; korxona va tashkilotlarda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish orqali real menejment jarayonlarini o‘rganish.

8. Talabalar tomonidan kreditlarni olish uchun talablar

Ushbu fan (modul) bo‘yicha talabalar bilimini baholash semestr davomida o‘quv materiallarini (testlar va yozma ishlar) bajarishga asoslanadi. Dars davomida talabalar 100 ballik tizimda baholanadi. Shundan, talabaning dars mashg‘ulotlaridagi ishtiroki, mustaqil ishlar va joriy natijalar uchun 20 ball, oraliq nazorat uchun 30 ball, yakuniy nazorat uchun 50 ball beriladi.

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH TARTIBI

Reytingni baholash turlari	Maks. ball	Bajariladigan topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarilish muddati
Joriy nazorat, shundan	**20**	**O‘quv jarayonining jadvali bo‘yicha**	
Dars mashg‘ulotlaridagi ishtiroki	10	talabaning dars jadvaliga muvoffiq ma'ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya mashg‘ulotlarida ishtirok etishi. Talabalarning dars mashg‘ulotlariga ishtirok etishlari majburiy hisoblanadi va talablarning dars mashg‘ulotlariga faol ishtiroki rag‘batlantiriladi.	Fanning dars jadvalidagi auditoriya vaqtiga mos holda
Mustaqil ta'lim, shundan	10	talabalar mustaqil ishlarini ikki yo‘nalishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etiladi.	
1-mustaqil ish	10	mustaqil ta'lim mavzularidan biri bo‘yicha 1000–1200 so‘zli esse yoki tahliliy maqola yozish	Topshrishning oxirgi muddati: oraliq nazorat boshlanguniga qadar
Oraliq nazorat	**30**	**Taqdimot shaklida (kichik guruhlarda ishlash)**	**Akademik o‘quv yili grafigi bo‘yicha**
Yakuniy nazorat	**50**	**Test**	**Akademik o‘quv yili grafigi bo‘yicha**

Reytingni baholash turlari	Maks. ball	Bajariladigan topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarilish muddati
Jami	**100**		

Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:
YaB= JN+ON+YaN
bu yerda: JN – joriy nazorat; ON – oraliq nazorat; YaN – yakuniy nazorat.
Eslatma: dars mashg‘ulotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan jami ballar (50 ball) ning kamida 60 foizini to‘play olmagan talabaning yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat berilmaydi. Shuningdek, yakuniy nazorat uchun ajratilgan jami 50 ballning kamida 60 foizini to‘play olmagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

9. Talabalar bilimini baholash mezoni

a) 5 (a’lo) baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
– fanning mohiyati va mazmunini to‘liq yorita olsa;
– tizimli menejment mavzularini bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylikka amal qilib, xatolik va chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa;
– nazariy bilimlarni turli boshqaruv vaziyatlarida qo‘llay olsa;
– berilgan savollarga aniq va lo‘nda javob bera olsa;
– mustaqil topshiriqlar va amaliy ko‘nikmalarni to‘liq o‘zlashtirgan bo‘lsa;
– tizimli yondashish va uzviylikka amal qilsa;

b) 4 (yaxshi) baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
– fanning mohiyati va mazmunini tushungan, mavzularni bayon qilishda jiddiy chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa;
– fanning amaliy ahamiyatini tushungan bo‘lsa;
– berilgan vazifa va topshiriqlarni o‘quv dasturi doirasida bajargan bo‘lsa;
– savollarga to‘g‘ri javob bera olsa va mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajargan bo‘lsa;
– amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga harakat qilgan bo‘lsa;

d) 3 (qoniqarli) baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
– fan haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lsa;
– mavzularni tor doirada yoritib, ayrim chalkashliklarga yo‘l qo‘ysa;
– mustaqil topshiriqlarni bajargan, biroq bayoni ravon bo‘lmasa;
– savollarga mujmal javob bersa;

e) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:
– mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rmagan bo‘lsa;
– fan bo‘yicha hech qanday tasavvurga ega bo‘lmasa;
– mustaqil topshiriqlarni bajarmagan bo‘lsa;
– matnlarni boshqalardan ko‘chirib olganligi sezilib tursa;
– fanga doir savollarga javob bera olmasa;

Eslatma: Talabalar bilimini baholash 100 ballik tizimda amalga oshiriladi: joriy nazorat – 20 ball, oraliq nazorat – 30 ball, yakuniy nazorat – 50 ball. Talabaning umumiy bali quyidagi formula orqali hisoblanadi: YaB = JN + ON + YaN (JN – joriy nazorat, ON – oraliq nazorat, YaN – yakuniy nazorat). Joriy va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan ballarning hamda yakuniy nazorat balining kamida 60 foizini to‘play olmagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

10. Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1.	Sh. S. Yegamberdiyev Global biznes muhiti. [O‘quv qo‘llanma] – Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 229 b.
2.	Г.Б.Шаназарова Экологическое управление. [Darslik] – Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2024. – 328 b.
3.	Ian Worthington and Chris Britton The business environment. [O‘quv qo‘llanma] – Pearson Education Limited, 2023. – 535 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1.	Warnock Davies. “The International Business Environment”. 2016 by Taylor & Francis Group, LLC. CRC Press is an imprint of Taylor & Francis Group, an Informa business.
2.	Shanazarova G.B. “Rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalar faoliyatini tartibga solish usullari” monografiya. –T- 2026
3.	Tursunova Z.R. “Integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes tuzilmalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha

	falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – T., 2025
Internet manbalari:	
1.	www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali
2.	www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3.	www.tradingeconomics.com – ekonomicheskie pokazateli
4.	e-marketer – Butunjahon marketing tadqiqotlari platformasi
5.	unctad.org - BMTning Savdo va taraqqiyot bo‘yicha Konferentsiyasining rasmiy sahifasi.

11. Akademik talablar

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabat samimiy va beg‘araz bo‘lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o‘quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O‘qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi

70 foizdan past bo‘lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshirig‘i 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo‘lmasa ish qabul qilinmaydi.